

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Ibragimov G‘anijon G‘ayratovich

TDIU Qo‘shma ta’lim dasturlarini
muvofiqlashtirish markazi boshlig‘i
Innovatsion Menejment kafedrası
Phd v.b dotsenti

E-mail: g.ibragimov@tsue.uz

ORCID: [0009-0008-7188-2609](https://orcid.org/0009-0008-7188-2609)

Annotatsiya

Tadqiqot doirasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda keng qo‘llanilayotgan Triple Helix modeli, ochiq innovatsiyalar modeli, klaster rivojlanishi modeli, biznes-inkubatsiya modeli, davlat-xususiy sheriklik modeli va boshqa innovatsion yondashuvlarning mohiyati va ularning iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Muallif tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb etishning hozirgi tendensiyalari, ularni oshirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar va taklif etilayotgan modellar asosida yechimlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiyalar, Triple Helix modeli, ochiq innovatsiyalar modeli, klaster rivojlantirish modeli, biznes-inkubatsiya modeli, davlat-xususiy sherikchilik modeli, qiymatlar zanjiri integratsiya modeli, innovatsion ekotizim modeli.

Аннотация

В исследовании анализируется сущность модели «Тройной спирали», модели открытых инноваций, модели кластерного развития, модели бизнес-инкубирования, модели государственно-частного партнерства и других инновационных подходов, широко используемых при привлечении иностранных инвестиций, и их влияние на экономику. Автор рассмотрел современные тенденции привлечения иностранных инвестиций, проблемы, препятствующие их увеличению, и пути их решения на основе предлагаемых моделей.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, модель Triple Helix, модель открытых инноваций, модель развития кластеров, модель бизнес-инкубации, модель государственно-частного партнерства, модель интеграции цепочки ценностей, модель инновационной экосистемы.

Abstract

The study analyzes the essence of the Triple Helix model, the open innovation model, the cluster development model, the business incubation model, the public-private partnership model, and other innovative approaches widely used in attracting foreign investment, and their impact on the economy. The author examines current trends in attracting foreign investment, problems that hinder their increase, and solutions based on the proposed models.

Keywords: foreign investments, Triple Helix model, open innovation model, cluster development model, business incubation model, public-private partnership model, value chain integration model, innovation ecosystem model.

KIRISH

Bizga ma'lumki rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiyotini ko'tarish bu chet el investitsiyalariga ko'plab holatlarda bog'liq ekanligi bilan baholanadi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning turli modellaridan foydalanish bu jalb etayotgan davlatlarning investitsiya muhiti hamda u yerda yaratilgan sharoitdan kelib chiqadi. Hozirgi kunda barcha davlatlar investitsion muhitni yaxshilash va investitsiya kiritmoqchi bo'lganlar uchun qulay sharoitni yaratishga harakat qilmoqda. Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan chet el investitsiyalarni jalb etish miqdoriga oldingi yillarga nisbatan kamayib bormoqda. Bunga asosiy sabab sifatida ekspertlar dunyoda yuz berayotgan turli voqealarni ko'rsatishmoqda. Jahon banki ma'lumotiga tayanadigan bo'lsak "hisobotda, shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalar o'sishining sekinlashuvi qayd etilgan global investitsiya tendensiyalaridagi muammolar ta'kidlangan. Biroq, rivojlangan davlatlar investitsiyalarni yashil energiya va raqamli infratuzilma kabi barqaror va texnologiyaga asoslangan tarmoqlarga yo'naltirishda davom etayotgan bo'lsada, rivojlanayotgan mamlakatlar kapitalning chetga chiqishi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qisqarishi kabi muammolarga duch kelishmoqda. Geosiyosiy keskinliklar ushbu tendensiyalarga yanada ta'sir ko'rsatib, mintaqaviy investitsiyalar oqimiga ta'sir qiladi.

"Mamlakatimizdagi ochiqlik, kuchli investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyot barqaror o'sib kelmoqda. Xususan, 2024-yilda yalpi ichki mahsulot 6,5 foizga oshib, 115 milliard dollarga yetdi. Xorijiy investitsiya 1,6 barobar o'sib, qariyb 35 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Qiymati 10 milliard AQSH dollarlik 242 ta yirik va o'rta loyihalar ishga tushdi. Eksport ilk bor 27 milliard dollarga yetdi" [1-3].

Bularning ichida eng ko'p jalb etilgan investitsiya Xitoy davlati bilan bo'lib, 2024-yil yakuniga ko'ra Xitoyning mamlakatimizga kiritgan investitsiyalarining hajmi 10 milliard AQSH dollaridan oshdi, tovar ayirboshlash hajmi esa 13,1 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda Xitoy kapitali ishtirokidagi 3357 korxonalar faoliyat yuritadi. Ular tomonidan energetika, yengil sanoat, infratuzilmaviy rivojlanish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, geologiya-qidiruv va boshqa sohalarda qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda [4-7].

Mamlakatimizda tadbirkorlar sinfi kengayib, xalqaro doiraga chiqmoqda. Ilg'or korxonalarimiz chet eldan to'g'ridan-to'g'ri mablag' olib kelishni boshladi. Buni qo'llab-quvvatlash maqsadida, Prezident farmoni bilan, Savdo-sanoat palatasida Tadbirkorlarga tashqi moliya bozorlariga chiqishga ko'maklashish markazi tashkil qilindi. Endi bundan foydalanib, ko'proq tadbirkorlar xorijdan mablag' jalb qilishga o'rgatilishi belgilandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy dastaklar orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalari hamda bu jarayonlarni amalga oshirish uchun muhim omillarni belgilab berishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, ayrim tadqiqotlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni nazariy asoslariga ko‘proq e‘tibor berilgan. “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) bir mamlakatning jismoniy shaxslari, kompaniyalari yoki tashkilotlari tomonidan boshqa mamlakatda joylashgan korxonalar, aktivlar yoki korxonalariga kiritgan investitsiyalarni anglatadi [8-9]. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar global iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki u kapital oqimini osonlashtiradi, biznesni kengaytirishga yordam beradi va ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi” degan xulosaga kelishgan[10-12]. Olimlar fikricha, investitsiyalar global iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi muhim omil sifatida baholaganlar. Innovatsion jarayonlarni zamonaviy darajada amalga oshirish va shu asosda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish bugungi kunda xorijiy sarmoyalarni jadal jalb qilmasdan turib mumkin emas[13-18]. Bizga ma‘lumki “Xorijiy investitsiyalar hajmi mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, investitsiya obyektining jozibadorligiga bog‘liq” deb izohlanadi. Bu tadqiqotda investitsiyani jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv obyektini sifatida qaralgan[19-21].

“Xorijiy investitsiya siyosatining evolyutsiyasi dinamik va ko‘p qirrali sayohat bo‘lib, u mamlakatlarning o‘zgaruvchan ustuvorliklarini, global savdning o‘zgaruvchan paradigmalari va texnologik taraqqiyotning tinimsiz yurishini aks ettiradi” deb izohlab berilgan[22-24]. Ushbu nazariy qarashga e‘tibor beradigan bo‘lsak, texnologik taraqqiyotning tinimsiz yurishini ya‘ni doimiy yangi texnologiyalar davri bilan baholanadi.

“Chet el investitsiyalari bir mamlakatdan ikkinchisiga kapital oqimini o‘z ichiga oladi, bu xorijiy investorlarga mahalliy kompaniyalar va aktivlarda keng ulushlarni beradi” deb ta‘rif berib o‘tilgan[25-26]. Respublikamizda tadqiqot olib borayotgan olimlarimiz tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini quyidagicha baholaydilar. Shunday qilib, “xorij investitsiyalarini iqtisodiyotga jalb qilish jarayonini oddiy sxema ko‘rinishida ta‘riflash mumkin: strategik maqsad-iqtisodiy hisob, tavakkalchilik darajasini baholash, uni minimallashtirish yo‘llarini topish. Agar shunday kompleks faoliyat aniq va to‘liq amalga oshirilsa, xorijdan sarmoya jalb etilishiga umid bor” deb ta‘kidlaganlar .

Olimlar fikricha “esda tutingki, biz tobora globallashtirib borayotgan iqtisodiyotda yashayapmiz, shuning uchun biznesga kelganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar siz uchun qulayroq variantga aylanadi. Biroq, bu eng yaxshi yo‘l ekanligini bilish uchun avval uning afzalliklari va kamchiliklarini bilishingiz kerak” deb ogohlantiruvchi xulosani ham berib o‘tadilar[27-28] .

Investitsiyalar, jumladan, xorijiy investitsiyalar nafaqat rivojlanish mexanizmi, balki kapitalni o‘tkazish orqali iqtisodiyotni tartibga solish usulidir. Bozor rivojlanishining hozirgi bosqichida xorijiy investitsiyalar eng yangi raqobatbardosh texnologiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. Shuni ta‘kidlash kerakki, iqtisodiy

o‘shish jarayonlari investitsiyalar hajmi va o‘shish sur‘atlari, ularning tuzilishi va sifat xususiyatlari bilan belgilanadi [29].

Yuqorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali ularning iqtisodiyotga ta‘sir zanjirini quyidagicha baholash mumkin:”global iqtisodiy o‘zgarish-jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv-aniq strategiya mezoni-milliy manfaat va iqtisodiy rivojlanish-texnologik taraqqiyot” kabi zanjirsimon tamoyildan foydalanish taklif etilgan.

METODOLOGIYA

Investitsion faoliyatni amalga oshirish korxonaning joriy foydasining bir qismidan voz kechishi, uni o‘z rivojlanishiga, loyihalarga, qimmatli qog‘ozlarga yoki naqd pulga investitsiya qilish, kelajakda ushbu investitsiyalardan olinadigan daromadni hisoblash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Moliyaviy investitsiyalar uchun, mablag‘ga muhtoj bo‘lgan taqdirda, qisqa vaqt ichida sotilishi mumkin bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun vaqtincha mavjud mablag‘lardan foydalanish odatiy holdir. Kapital qo‘yilmalar ko‘proq korxonaning uzoq muddatli rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish ma‘lum qarz manbalaridan mablag‘larni jalb qilishni talab qiladi. Korxonada, shuningdek, o‘z rivojlanishini yoki joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun mablag‘larni jalb qilish uchun moliyaviy bozor vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Triple Helix modelining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:


1. Universitet va sanoat korxonalari hamkorligi. Universitetlar va sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirish bilimlarni uzatish, texnologiyalarni tijoratlashtirish va sarmoyalarni jalb qiluvchi qo‘shma tadqiqot tashabbuslariga olib keladi.

2. Davlat yordami. Siyosatchilar innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi va xususiy investitsiyalarni jalb qilishni moliyalashtirish, rag‘batlantirish va me‘yoriy-huquqiy bazani taqdim etish orqali hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

3. Innovatsion ekotizimlar. Model innovatsion klasterlar, ilmiy parklar va inkubatorlarni yaratishga yordam beradi, bu tarmoqlarni osonlashtiradi va yangi investitsiya imkoniyatlarini ochib beradi.

Triple Helix modelida ko‘pincha "fuqarolik jamiyati" yoki "jamoat" deb ataladigan to‘rtinchi element innovatsion ekotizimning asosiy ishtirokchisi sifatida kiritilgan. Ushbu model fuqarolar, jamoalar va nodavlat tashkilotlarning ishtiroki hamda faol ishtiroki innovatsiyalar, iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishga sezilarli hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rsatib berishini asoslab berganlar.


Triple Helix modelidagi asosiy xarakterli xususiyatlar va o‘zaro ta‘sirlarga quyidagilar kiradi (1-rasm):



1-rasm. Triple Helix modelidagi asosiy xarakterli xususiyatlari¹.

Ochiq innovatsion model. Investitsion imkoniyatlarni oshirish uchun tashqi g'oyalardan, texnologiyalardan va yangi sheriklarni qo'shishni rag'batlantiradi.

Ochiq innovatsiyaning tanqidiy konsepsiyasi innovatsiyalarni rag'batlantirish va kuchaytirish uchun bilim, resurslar va g'oyalarni olish va berishdir. Chesbroning ta'kidlashicha, ochiq innovatsiyalar konsepsiyasi an'anaviy vertikal integratsiya tizimiga ziddir. Ochiq innovatsiyalarning ikkita asosiy ishtirokchisi bo'lib, tashqi va ichki innovatsiyalar, ular ikkalasi ham bilim, resurslar va g'oyalarni almashadilar. Ochiq innovatsiyalar konsepsiyasini Penta spiral modeli bilan birlashtirilib uzoq muddatli innovatsiyalarni targ'ib qiluvchi startap markazi bo'lish haqidagi tasavvurimizni amalga oshirishimiz mumkin (2-rasm)[20].



2-rasm. Ochiq innovatsion model tuzilishi[20].

Ochiq innovatsiya modeli an'anaviy yopiq innovatsion paradigmaga qarshi chiqadi, bunda kompaniyalar birinchi navbatda g'oyalardan va texnologiyalarni ishlab

¹ Muallif ishlanmasi.


chiqarish uchun o‘zlarining tadqiqot va ishlanmalariga tayanadilar. Sanoat loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish uchun ushbu modeldan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat (3-rasm):



3-rasm. Sanoat loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish uchun ushbu modeldan foydalanishning afzalliklari¹.

Sanoatda investitsiyalarni jalb etishning biznes-inkubatsiya modeli. Sanoatning iqtisodiy o‘rnatishni tezlashtirish va investitsiya jozibadorligini oshirish uchun resurslar va xizmatlar bilan startaplarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Biznes-inkubatsiya modeli — bu sanoatni iqtisodiy o‘rnatish va rivojlanishini, odatda, ularning dastlabki bosqichlarida qo‘llab-quvvatlaydigan tizimli yondashuv hisoblanadi. Biznes-inkubatorlar resurslar va tarmoq imkoniyatlarini taqdim etish orqali dastlabki bosqichdagi startaplarni qo‘llab-quvvatlash orqali investitsiyalarni jozibadorligini oshiradi (4-rasm).



4-rasm. Biznes-inkubatsiya modelining konsepsiyasi [21].

Biznes-inkubatsiya modeli xususiyatini yana ochib beruvchi model infoDev model hisoblanadi. infoDev model modeli butun dunyo bo‘ylab infoDev tarmog‘ida biznes inkubatorlar qurish uchun ishlab chiqilgan modeldir. infoDev model — bu "dunyo bo‘ylab innovatsiyalarni rivojlantiruvchi" kuchli va taniqli Jahon banki dasturi.

¹ Muallif ishlanmasi.

Ular besh xil yo‘nalishda ishlaydi: Moliyaga kirish, Agrobiznes tadbirkorligi, Iqlim texnologiyasi, Mobil innovatsiyalar, Tadbirkor ayollar. Ular qilayotgan ishlardan biri tadbirkorlarga biznesni o‘rgatishga, dastlabki bosqichda moliyalashtirishga kirishga va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga yordam berishdir (bular ko‘pincha biznes inkubatorlarni o‘z ichiga oladi) [21].

Biznes-inkubatorlar xavfli startaplarga qiyinchiliklarni yengib o‘tish, o‘sish sur‘atlarini tezlashtirish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishga yordam berish uchun bir qator resurslar, xizmatlar va ishbilarmonlikni taqdim etadi. Ushbu model innovatsiyalar, tasdiqlash va tarmoq yaratish uchun qulay muhitni taklif qilish orqali sanoat loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish uchun ayniqsa muhim hisoblanadi.

Investitsiyalarni talab qiluvchi sanoat loyihalari uchun ushbu model quyidagilarni taklif qiladi (5-rasm):



5-rasm. Investitsiyalarni talab qiluvchi sanoat loyihalari uchun ushbu modelning xususiyatlari¹.

Respublikamizda ham yangi loyihalarni amalga oshirish uchun turli startaplardan foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Jumladan, yangi yondashuv – o‘tgan yili 12 ta texnopark xorijiy korxonalar boshqaruviga berilgan. Hozircha ularga 2,5 milliard AQSH dollarlik 27 ta loyiha joylashtirilgan. Bu tajribani kengaytirib, xorijiy kompaniyalar ishtirokida yana bir nechta texnoparklar tashkil qilish taklifi bildirildi. Bu yil eksportni 30 milliard AQSH dollaridan oshirish mo‘ljallanmoqda. Masalan, yurtimizda xomashyosi bo‘lgan to‘qimachilik, elektrotexnika kabi tarmoqlarda eksportni 2-3 karra oshirish imkoniyati bor. Shu bois bu ikkita drayver tarmoqni rivojlantirish, eksportga ishlayotgan korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘riladi.

Xususan, eksportchilarni aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash uchun alohida faktoring tashkiloti ochilib, unga 100 million dollar ajratiladi. Korxonalarni xalqaro sertifikat talablariga moslashtirish xarajatlarining 20 ming AQSH dollarigacha qismi qoplab beriladi. Rivojlanish va tadqiqot markazlari (R&D) uchun olib kelinadigan

¹ Muallif ishlanmasi.

laboratoriya jihozlari bojxona bojaridan ozod qilinadi. Xalqaro marketpleyslar orqali mahalliy mahsulotlarini targ'ib qilish uchun 2 million AQSH dollari yo'naltiriladi[23].

Biroq, biznes-inkubatsiya modelining muvaffaqiyati bevosita inkubatorning sifati, uning resurslari, ishbilarmonlari va startaplarning dasturlariga muvofiqligiga bog'liq bo'ladi. Sanoat loyihasining o'ziga xos ehtiyojlari va maqsadlariga mos keladigan to'g'ri inkubatorni tanlash foydani ko'paytirish va uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish uchun juda muhim omil hisoblanadi.

Sanoatga investitsiyalarni jalb etishni klasterni rivojlantirish modeli. Sarmoyalarni jalb qilish va biznes, tadqiqotchilar va davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun mintaqaviy innovatsion klasterlarni yaratishga e'tibor qaratiladi.

Klasterlar va maxsus iqtisodiy zonalar turli sohadagi korxonalar, yetkazib beruvchilar, tadqiqot institutlari va boshqa manfaatdor tomonlarni birlashtiradi.

Investitsiya samaradorligining ko'rsatkichlaridan biri – eksport. Masalan, erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalar kiritgan sarmoyasiga qarab, imtiyoz olayapti. Bu tannarxni pasaytirish, eksportga chiqishga xizmat qilishi kerak. Respublikamizda o'tgan yili 22 ta erkin iqtisodiy zonadagi 589 ta korxonada 42 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqargan. Lekin tovarlarning atigi 18 foizi tashqi bozorlarga sotilgan, 372 ta korxonada umuman eksport qilmagan. Shu bois endi faqat eksportga ishlaydigan erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi ta'kidlandi. Ularda xorijiy brendlar bilan yuqori qiymatli, tashqi bozorlarda talabgir mahsulotlar ishlab chiqarilishi belgilandi[24].

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh). Infratuzilma va sanoat loyihalarini moliyalashtirish va boshqarish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Jahon banki statistik ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi keltirib chiqargan qiyinchiliklarga qaramay, 2020-yilda butun dunyo bo'ylab DXSH investitsiyalari taxminan 44,6 milliard AQSH dollariga yetgan. Ushbu investitsiyalar energetika, transport va suv kabi keng sohalarni qamrab olgan.

Global infratuzilma markazi 2020-yildan 2040-yilga borib infratuzilmaga investitsiyalar bo'yicha 15 trillion AQSH dollari atrofida farq borligini taxmin qildi. Davlat-xususiy sheriklik xususiy sektor kapitalini jalb qilish orqali bu bo'shliqni bartaraf etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Misol uchun, Koloradodagi (AQSH) "Shimoliy-g'arbiy Parkvay Northwest Parkway" yo'l tirbandligini yumshatishga qaratilgan 416 million AQSH dollarlik yirik investitsiya loyihasi bo'lib, u transport infratuzilmasini yaxshilashda DXSH salohiyatini namoyish etgan. Hindistonda davlat-xususiy sheriklik asosida ishlab chiqilgan Rewa Ultra Mega Solar Park Rewa Ultra Mega quyosh parki 2020-yilda o'rnatilgan quvvati 750 MVt bo'lgan dunyodagi eng yirik quyosh parkiga aylandi. Suv taqchilligini bartaraf etish va suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash uchun davlat-xususiy sheriklik yo'lga qo'yildi. Stokgolmdagi (Shvetsiya) Hammarby Sjöstad loyihasi sanoat hududini suv boshqaruvi va shahar rejalashtirishni o'zida mujassam etgan investitsiya orqali ekologik toza tumanga aylantirdi [25].

Bu raqamlar tarmoqlarning xilma-xilligini va infratuzilma va sanoat loyihalariga investitsiyalarni jalb qilishda DXSHlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Biroq,

muvaffaqiyatli amalga oshirish puxta rejalashtirish, tavakkalchilikni samarali boshqarish, shaffoflik va davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi manfaatlarni moslashtirishni talab qiladi.

Qiymatlar zanjiri integratsiya modeli. Samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun qiymat zanjiridagi turli bosqichlarni optimallashtirish va hamkorlik qilishga urg'u beradi.

Innovatsion ekotizim modeli. Innovatsiyalarni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun startaplar, investorlar, tadqiqot institutlari va boshqa manfaatdor tomonlarni qo'llab-quvvatlaydigan muhitni yaratadi.

Ushbu modellarning har biri investitsiyalarni jalb qilish va sanoat loyihalari o'sishini rag'batlantirish uchun o'ziga xos yondashuvni taklif etadi. Modelni tanlash loyihaning aniq maqsadlari, resurslari va kontekstiga, qabul qiluvchi mamlakatga va u faoliyat ko'rsatadigan sohaga bog'liq bo'ladi[26-28].

Ko'rib turganimizdek, investitsiyalarni jalb qilishda oqilona va puxta tuzilgan yondashuv sanoat loyihalari muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha modellar muhim rol o'ynaydi. Ushbu modellarni qo'llash orqali yirik korxonalar investitsiyalarni jalb qilish strategiyalarini kuchaytirishi va rivojlanishni tezlashtirishi mumkin, shu bilan birga risklarni minimallashtirish va innovatsiyalarni rag'batlantirishga imkoniyat yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan tahlillar asosida moliya bozori dastaklari orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish modellarining uslubiy asoslarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. TTXlar yalpi ichki mahsulot bilan o'lchanadigan iqtisodiyot hajmining taxminan 2-3 foizini tashkil qilsa hamda mamlakat har yili yalpi ichki mahsulotning 5-6% dan ortiq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni muntazam ravishda qabul qilsa, bu mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishiga muhim hissa qo'shishi asoslandi.

2. Respublikamiz sanoat sohasiga yirik investitsiyalarni jalb etishda Triple Helix uch o'lchovli zanjirsimon innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishni ta'minlash modelidan foydalanish tavsiya etildi.

3. Ochiq innovatsiya modeli orqali sanoat loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish uchun ushbu modeldan foydalanishning afzalliklari ochib berildi.

4. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha kompleks dasturni amalga oshirishda kyerakli tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish zarurligi asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'rmonov, N. T., & Ismailov, A. R. (2019). Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot. *O'quv qo'llanma.-T.: Iqtisodmoliya*, 254.

2. Djurayevna, R. M. (2023). MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 347-356.

3. Khamdamov, S. J. (2024). Impact of Exchange Rate Fluctuations on

Uzbekistan's Export-Led Growth. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(8), 431-436.

4. Хамдамов, Ш. Ж. (2022). БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(Maxsus_son), 19-24.

5. Хамдамов, Ш. Ж. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА ИНТЕНСИВ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛЛАРИНИНГ ЎЗАРО САЛМОҒИНИ АНИҚЛАШ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (5), 84-88.

6. Mamadiyurov, Z., Sultanova, N., Makhmudov, S., Khamdamov, S. J., Mirpulatova, L., & Jumayev, A. (2023, December). The Impact of Digitalization on Microfinance Services in Uzbekistan. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 453-463).

7. Khamdamov, S. J. (2024). The Effect of Labor Market Reforms on Economic Growth in Uzbekistan. *American Journal of Corporate Management*, 1(2), 7-12.

8. Tukhtabaev, J. S., Turaev, H. Y., Kasimov, A. A., Bondarskaya, T. A., Ochilov, A. O., Bondarskaya, O. V., ... & Irisbayeva, S. D. (2023, December). Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. In *International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking* (pp. 177-195). Cham: Springer Nature Switzerland.

9. Jakhon, K. S. (2021). Analysis of factors of intensive economic growth in Uzbekistan. *JournalNX*, 7(12), 310-315.

10. Khamdamov, S. J. (2024). THE IMPACT OF CENTRAL BANK POLICIES AND DIGITALIZATION ON GDP GROWTH IN UZBEKISTAN. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(6), 7-10.

11. Saidmakhmudovich, U. A., Khamdamov, S. J., & Eshonovich, S. A. (2023). PROBLEMS OF ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS IN UZBEKISTAN. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 16, 106-110.

12. Khamdamov, S. J. R., Usmanov, A. S., Sayfullayev, S. N., Xamitova, M. S., & Adkhamjonov, S. B. (2024). The Influence of the Main Rate of the Central Bank on GDP Growth in Uzbekistan and the Transition to International Financial Reporting. In *Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS* (Vol. 33, pp. 107-112). Emerald Publishing Limited.

13. Mamadiyarov, Z. T., Sultanova, N. I., Khamdamov, S. J. R., & Makhmudov, S. B. (2024). Analyzing the Impact of International Financial Reporting Standards (IFRS) on Microfinance Services. In *Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS: Part A* (pp. 39-47). Emerald Publishing Limited.

14. Khamdamov, S. J., Kakhramonova, U., & Usmanov, A. (2024). GREEN ECONOMY AS A DRIVER OF SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(8), 64-66.

15. Matatkulov, B., Khamdamov, S. J., Togayniyazov, S., Tukhtabaev, J., Quldoshev, Q., & Qarshiev, D. (2023, December). Predicting Future Living Standards

in Uzbekistan: Utilizing Econometric Analysis. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 425-431).

16. Khamdamov, S. J. (2024). The Role of Foreign Direct Investment (FDI) in Uzbekistan's Economic Growth. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(8), 437-443.

17. Shoh-Jakhon, K. (2023). Theoretical and Methodological Aspects of Intensive Economic Growth in Ensuring Sustainable Economic Development. *Social and Economic Studies within the Framework of Emerging Global Developments Volume 3*, 283.

18. Khamdamov, S. J., & Usmanov, A. (2022). New methodological recommendations for economic growth. *Архив научных исследований*, 2(1).

19. Salimov, B., Kholikova, R., Khamdamov, S. J., Turaev, A., Tukhtabaev, J., Nosirova, N., & Akhmedova, D. (2023, December). Strategies for Integrating Digitalization in Leveraging Regional Economic and Scientific Expertise for the Innovative Growth of Small and Medium Enterprises. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 483-490).

20. Khamdamov, S. J. (2024). Energy Sector Development and its Contribution to Uzbekistan's Economic Expansion. *American Journal of Corporate Management*, 1(2), 1-6.

21. Kasimov, A., Tukhtabaev, J., Bondarskaya, O., Bondarskaya, T., Ochilov, A., Mamatov, M., ... & Usmanov, C. (2023, December). Organizational and Economic Modeling of the System of Interregional Industrial Cooperation as a Control Object. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 333-343).

22. Kurbonov, K., Makhmudov, S., Mamadiyurov, Z., Khamdamov, S. J., Karlibaeva, R., Samadov, A., & Djalilov, F. (2023, December). The Impact of Digital Technologies on Economic Growth in the Example of Central Asian and European Countries. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 403-409).

23. Makhmudov, S., Khamdamov, S. J., Karlibaeva, R., Mamadiyurov, Z., Haydarov, O. R., Khujamurodov, A., & Imomov, K. (2023, December). The Impact of Digital Technologies on the Labor Market of Uzbekistan. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 260-267).

24. угли Хамдамов, Ш. Ж. Р. (2020). ОЦЕНКА УРОВНЯ ИНТЕНСИВНОГО РОСТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ББК 72 И120, 113.

25. Yusupov, S., Boymuradov, S., Bobamuratova, D., Shukhratova, M., Marupov, I., Akramova, D. T., ... & Muradova, D. A. (2022, December). Diagnostic aspects of zygomatico-orbital complex fractures with the use of modern digital technologies. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 399-403).

26. Muftaydinova, S. K., Chuprynin, V. D., Fayzullin, L. Z., Buralkina, N. A., Muminova, Z. A., Asaturova, A. V., ... & Abdullayev, S. I. (2022, December). Expression of the tyrosine kinase receptor (EPHA1) in the eutopic and ectopic

endometrium of patients with deep infiltrative endometriosis use of modern digital technologies. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 416-421).

27. Khamdamov, S. J., & Akramova, D. (2021). Aspects of the vegetative disorders occurrence in the Parkinson's disease and Vascular Parkinsonism. *Journal of the Neurological Sciences*, 429.

28. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJIY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 176-181.

29. Xalikova, L. N., & Mavlonova, U. R. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. *O'quv uslubi*.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**